



ANDIJON VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2023- yil 1- fevral holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)

Har qanday mamlakatning milliy iqtisodiy majmuasida markaziy o'rinni korxonalar egallaydi, chunki aynan ular milliy daromadni yaratadi, bir vaqtning o'zida ishlab chiqaruvchi vazifasini bajaradi hamda o'zini o'zi ta'minlash va mustaqillikka asoslangan takror ishlab chiqarish jarayonini amalga oshiradi.

Ma'lumki, yaratilgan yalpi milliy mahsulot hajmi, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, mamlakat aholisining moddiy va ma'naviy manfaatlarini qondirish darajasi mustaqil korxonalarining muvaffaqiyatlariga bog'liq.


Korxonaning foydalilik darajasi minimal ishlab chiqarish xarajatlari bilan fan va texnika yutuqlaridan foydalangan holda eng qulay sharoitlarni va shu bilan birga yuqori sifatli mahsulotlarni samarali ishlab chiqarishga imkon yaratishidir, boshqacha qilib aytganda, korxonalar – bu, iqtisodiyotni tashkil qilishning shunday shakli bo'lib, u yerda yakka iste'molchi va ishlab chiqaruvchi uchta yirik iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun bozor orqali o'zaro aloqada bo'ladi: nima, qanday va kim uchun ishlab chiqarish kerak? Shu bilan birga, tadbirkorlarning va tashkilotlarning birortasi ongli ravishda ushbu iqtisodiy muammolarning uchligini hal qilish bilan shug'ullanmaydi (bozor elementida har kim ularni individual darajada hal qiladi).

Ma'lumki, bozor tizimida hamma narsa o'z narxiga ega. Bozor iqtisodiyoti insonlar va korxonalarini narxlar va bozorlar tizimi orqali ongsiz ravishda muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Agar bozorlarning barcha xilma-xilligini oladigan bo'lsak, unda o'z-o'zidan narxlar va ishlab chiqarish muvozanatini sinov va xatolar orqali ta'minlaydigan keng tizimga ega bo'lamiz.

O'zbekistondagi korxonalar faoliyati O'zbekiston Respublikasining soliq, bojxona, valyuta, moliya, investitsiya va boshqa qonun hujjatlarini o'z ichiga olgan qonunchiligi bilan tartibga solinib, mamlakatimizdagi korxonalarining ayrim xususiyatlarini, jihatlarini va faoliyatini tartibga soladi.

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risida umumiy ma'lumotlar


fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2023- yil yanvar holatiga ko'ra


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Hududlar kesimida

Andijon sh.	88	Baliqchi t.	11
Asaka t.	32	Jalaquduq t.	10
Oltinko'l t.	26	Ulug'nor t.	10
Andijon t.	23	Xo'jaobod t.	9
Shahrixon t.	22	Paxtaobod t.	8
Izboskan t.	21	Buloqboshi t.	8
Marhamat t.	15	Qo'rg'ontepa t.	7
Bo'ston t.	14	Xonobod sh.	4


2023- yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 308 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan bu ko'rsatkich 486 taga kamaydi va 38,8 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida o'tgan yilga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Qo'rg'ontepa (70 ta), Shahrixon (63 ta), Paxtaobod (61 ta), Xo'jaobod (55 ta) va Andijon (41 ta) tumanlarida sezilarli kamayish kuzatildi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

3 331
103,0 %



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

9 438
99,5 %



Sanoat

3 318
103,4 %



Qurilish

12 841
107,3 %



Savdo

1 470
108,2 %



Tashish va saqlash

1 956
100,6 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

617
107,7 %



Axborot va aloqa

1 120
110,6 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

8 918
103,8 %



Boshqa turlar

Hududlar kesimida

Andijon sh. 13 044

Asaka t. 4 098

Shahrixon t. 2 913

Andijon t. 2 835

Baliqchi t. 2 469

Izboskan t. 2 168

Oltinko'l t. 2 132

Qo'rg'ontepa t. 2 116

Marhamat t. 1 837

Xo'jaobod t. 1 798

Paxtaobod t. 1 777

Jalaquduq t. 1 694

Buloqboshi t. 1 298

Bo'ston t. 1 099

Ulug'nor t. 878


Xonobod sh. 853

2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning mos davriga (41 377 ta) nisbatan 1 632 taga oshib, o'sish sur'ati 103,9 foizni tashkil etdi.


Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar sonining o'tgan yilga nisbatan sezilarli o'sishi Andijon shahrida (682 ta), Baliqchi (313 ta), Asaka (208 ta), Izboskan (155 ta) va Oltinko'l (92 ta) tumanlarida qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimi bo'yicha o'tgan yilga nisbatan eng yuqori ko'rsatkich savdoda – 876 ta, tashish va saqlashda – 111 ta, qurilishda – 109 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda – 107 taga to'g'ri kelib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida esa boshqa sohalarga nisbatan kamroq – 12 tani tashkil etdi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati

2023-yilning
2022-yilga
nisbati2023-yilning
2021-yilga
nisbati

Hududlar kesimida

Andijon sh.	85
Asaka t.	32
Oltinko'l t.	26
Andijon t.	22
Shahrixon t.	22
Izboskan t.	20
Marhamat t.	15
Bo'ston t.	14
Ulug'nor t.	10
Baliqchi t.	10
Jalaquduq t.	10
Xo'jaobod t.	9
Paxtaobod t.	8
Buloqboshi t.	8
Qo'rg'ontepa t.	7
Xonobod sh.	4

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Tahlillar shuni ko'rsatdiki, so'nggi uch yil ichida viloyatimizdagi tadbirkorlik subyektlarining taxminan 50 foizga yaqini yangi tashkil etilgan.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari sonining o'tgan yilga nisbatan Qo'rg'ontepa (69 ta), Shahrixon (62 ta), Paxtaobod (59 ta), Xo'jaobod (53 ta), Andijon (39 ta), Izboskan (38 ta) va Jalaquduq (38 ta) tumanlarida sezilarli kamayish kuzatildi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilga nisbatan solishtirilganda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (368 taga), savdo (48 taga) hamda sanoat sohasida (47 taga) kamayish kuzatildi.

2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati




2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi - 37 699 tasi yoki 87,7 foizi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelib, o'sish sur'atlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan 104,6 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng yuqori o'sish sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (111,7 foiz), tashish va saqlash (108,2 foiz), axborot va aloqa (107,8 foiz), savdo (107,3 foiz), qurilish (103,4 foiz) hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (103,0 foiz) sohalarida kuzatilgan bo'lsa, hududlar kesimida esa Baliqchi (116,3 foiz), Izboskan (108,6 foiz), Ulug'nor (108,1 foiz), Buloqboshi (106,4 foiz), Andijon shahri (105,6 foiz), Asaka (105,5 foiz) va Oltinko'l (105,2 foiz) tumanlariga to'g'ri keldi.


Hududlar kesimida

Andijon sh.	11 844
Asaka t.	3 656
Andijon t.	2 522
Shahrixon t.	2 492
Baliqchi t.	2 157
Izboskan t.	1 882
Oltinko'l t.	1 827
Qo'rg'ontepa t.	1 781
Marhamat t.	1 594
Xo'jaobod t.	1 564
Paxtaobod t.	1 511
Jalaquduq t.	1 399
Buloqboshi t.	1 084
Bo'ston t.	914
Xonobod sh.	750
Ulug'nor t.	722


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	85	Baliqchi t.	10
Asaka t.	32	Jalaquduq t.	10
Oltinko'l t.	26	Ulug'nor t.	10
Andijon t.	22	Xo'jaobod t.	9
Shahrixon t.	22	Paxtaobod t.	8
Izboskan t.	20	Buloqboshi t.	8
Marhamat t.	15	Qo'rg'ontepa t.	7
Bo'ston t.	14	Xonobod sh.	4

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	Sanoat	Qurilish
9	47	27
Savdo	Tashish va saqlash	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
139	22	9
Axborot va aloqa	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	Boshqa turlar
7	9	33


Ma'lumki, viloyatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jadal rivojlanmoqda. Shuningdek, mahalliy tadbirkorlar va investorlar uchun bir qator qulay huquqiy va iqtisodiy sharoitlar yaratilib kelinmoqda.

Shunday qilib, 2023- yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 449 taga kamaygan. Ushbu ko'rsatkich iqtisodiy faoliyat turlari kesimida tahlil qilinganda tashish va saqlashda – 8 taga hamda qurilishda – 3 taga oshganligini ko'rishimiz mumkin.


7 Faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari to'g'risida ma'lumotlar

2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Hududlar kesimida

Andijon sh.	11 773	Marhamat t.	1 588
Asaka t.	3 646	Xo'jaobod t.	1 557
Andijon t.	2 509	Paxtaobod t.	1 507
Shahrixon t.	2 488	Jalaquduq t.	1 393
Baliqchi t.	2 153	Buloqboshi t.	1 083
Izboskan t.	1 878	Bo'ston t.	911
Oltinko'l t.	1 821	Xonobod sh.	746
Qo'rg'ontepa t.	1 775	Ulug'nor t.	718


2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 1 642 taga ko'paygan va o'sish sur'ati 104,6 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng yuqori o'sish sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (111,8 foiz), tashish va saqlashda (108,2 foiz), axborot va aloqada (107,8 foiz) hamda savdo (107,3 foiz) sohalarida kuzatilgan bo'lsa, hududlar kesimida Baliqchi (116,3 foiz), Izboskan (108,6 foiz), Ulug'nor (108,0 foiz), Buloqboshi (106,4 foiz), Andijon shahri (105,5 foiz), Asaka (105,5 foiz) va Oltinko'l (105,2 foiz) tumanlariga to'g'ri keldi.


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Asaka t.	441
Andijon sh.	295
Baliqchi t.	274
Izboskan t.	261
Qo'rg'ontepa t.	244
Andijon t.	243
Shahrixon t.	237
Paxtaobod t.	231
Marhamat t.	186
Ulug'nor t.	168
Oltinko'l t.	166
Jalaquduq t.	151
Bo'ston t.	148
Xo'jaobod t.	140
Buloqboshi t.	99
Xonobod sh.	47

Dehqonchilik,
va chorvachilik,
ovchilik
va bu sohalarda
xizmat ko'rsatish

3 125

22

O'rmonchilik
va yog'och
tayyorlash

Baliq ovlash
va akvakultura


184

O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.


Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida meva-sabzavot yetishtirishga bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash, shuningdek, bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Shunday qilib, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonining ko'pligi bo'yicha Asaka tumani viloyatda yetakchilik qilib kelmoqda.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	3 006
Asaka t.	993
Andijon t.	785
Shahrixon t.	683
Xo'jaobod t.	522
Baliqchi t.	496
Oltinko'l t.	454
Qo'rg'ontepa t.	377
Izboskan t.	363
Jalaquduq t.	345
Marhamat t.	316
Buloqboshi t.	294
Paxtaobod t.	287
Bo'ston t.	202
Xonobod sh.	183
Ulug'nor t.	132

9 087

99,4 %

Ishlab chiqarish sanoati

38

108,6 %

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

143

100,7 %

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

170


104,3 %

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish


Qayd etish kerakki, sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. Shunday qilib, so'nggi uch yil ichida milliy iqtisodiyotda faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari sonining o'sish sur'ati 141,9 foizni tashkil etdi.

Sanoat korxonalari soni jami korxonalar va tashkilotlarning 21,9 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 96,3 foizini ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yilga nisbatan 99,4 %), 1,5 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (100,7 %), 0,4 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (108,6 %) hamda 1,8 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (104,3 %) tashkil etgan.


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida



Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 19,1 foizga oshgan.


Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda:

binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 60,1 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,2 foizga oshgan;


fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 9,7 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 18,9 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 30,2 foiz ulushni va 99,6 foizni tashkil etdi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	3 574
Asaka t.	1 161
Baliqchi t.	879
Shahrixon t.	847
Andijon t.	769
Oltinko'l t.	750
Izboskan t.	749
Qo'rg'ontepa t.	699
Paxtaobod t.	622
Jalaquduq t.	579
Marhamat t.	553
Xo'jaobod t.	537
Buloqbo'shi t.	355
Bo'ston t.	295
Ulug'nor t.	238
Xonobod sh.	234

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

8 185
105,3 %

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

3 745
113,6 %


Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

911
101,8 %


Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar sonini ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishida 63,7 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2022-yilning mos davri bilan solishtirilganda 5,3 foizga o'sgan;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 29,2 foiz ulushni tashkil etib, 13,6 foizga oshgan;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 7,1 foiz ulushni tashkil etib, 1,8 foizga o'sgan.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	783
Asaka t.	178
Andijon t.	127
Shahrixon t.	98
Xonobod sh.	94
Qo'rg'ontepa t.	87
Oltinko'l t.	83
Ulug'nor t.	73
Izboskan t.	65
Paxtaobod t.	61
Jalaquduq t.	60
Baliqchi t.	59
Xo'jaobod t.	55
Buloqboshi t.	54
Marhamat t.	50
Bo'ston t.	29

Yashash bo'yicha xizmatlar



Oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar




2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda 18,2 foizga oshgan bo'lib, viloyatdagi jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 4,5 foiz ulushini tashkil etdi.


Mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar va shaharchalar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyatlari hisoblanib, 2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 7,3 foiz ulushini tashkil etdi.

Restoran, oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish va buyurtma bo'yicha ovqat va ichimliklarni yetkazish faoliyatlari oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 92,7 foiz ulushini tashkil etdi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	238
Asaka t.	47
Marhamat t.	44
Baliqchi t.	40
Shahrixon t.	36
Xo'jaobod t.	35
Buloqbo'shi t.	35
Andijon t.	33
Qo'rg'ontepa t.	20
Oltinko'l t.	20
Jalaquduq t.	16
Izboskan t.	15
Paxtaobod t.	14
Ulug'nor t.	10
Xonobod sh.	8
Bo'ston t.	6



Nashriyotchilik faoliyati



Kino-videofilmlar, televidion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish



Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirish



Aloqa



Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar




Axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyat

2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra nashriyotchilik faoliyati, kino-videofilmlar, televidion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 12,8 foizini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 109,7 foizni tashkil etdi.


Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 47,3 foizini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 105,4 foizni tashkil etdi.

Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar hamda axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyat yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning 39,9 foizini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 109,8 foizni tashkil etgan.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	399
Asaka t.	97
Shahrixon t.	93
Andijon t.	63
Baliqchi t.	60
Izboskan t.	59
Oltinko'l t.	53
Marhamat t.	52
Paxtaobod t.	47
Qo'rg'ontepa t.	44
Xo'jaobod t.	44
Buloqboshi t.	39
Jalaquduq t.	39
Xonobod sh.	17
Bo'ston t.	8
Ulug'nor t.	6

Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

1 093
110,9 %

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

15
75,0 %

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

12
171,4 %

2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 97,6 foizini sog'liqni saqlash sohasi yo'nalishidagi korxonalar tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 10,9 foizga o'sgan.


Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasining 1,3 foizini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 75,0 foizni tashkil etgan.

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,1 foizini tashkil etib, 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda 71,4 foizga o'sgan.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	609
Asaka t.	142
Andijon t.	93
Shahrixon t.	87
Qo'rg'ontepa t.	67
Marhamat t.	58
Izboskan t.	55
Xo'jaobod t.	54
Oltinko'l t.	53
Paxtaobod t.	52
Baliqchi t.	50
Jalaquduq t.	41
Bo'ston t.	39
Buloqboshi t.	38
Ulug'nor t.	17
Xonobod sh.	15

Quruqlikdagi va quvur transporti

1 137

109,4 %

Ombor xo'jaligi va yordamchi transport faoliyati

307

103,7 %

Pochta va kuryerlik faoliyati

25

108,7 %

Havo transporti

1


100,0 %

2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,4 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlari sohasining quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlari soni 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda 9,4 foizga, ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishida 3,7 foizga, pochta va kuryerlik yo'nalishida 8,7 foizga oshgan. Havo transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda 100,0 foizni tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha umumiy ma'lumot


2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda

Tadbirkorlik subyektlari soniTadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi


Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning birlashtirilishi (shakllantirilishi) va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati

2023- yilning
2022- yilga
nisbati2023- yilning
2021- yilga
nisbati

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Hududlar kesimida


Andijon sh.	83	Jalaquduq t.	10
Oltinko'l t.	25	Xo'jaobod t.	9
Asaka t.	24	Ulug'nor t.	9
Andijon t.	20	Paxtaobod t.	8
Izboskan t.	19	Qo'rg'ontepa t.	7
Shahrixon t.	19	Buloqboshi t.	7
Marhamat t.	13	Bo'ston t.	6
Baliqchi t.	10	Xonobod sh.	4

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

2 549
109,0 %



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

7 256
101,4 %



Sanoat

2 943
104,1 %



Qurilish

10 312
109,6 %



Savdo

1 363
109,3 %



Tashish va saqlash

1 365
103,6 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

494
109,8 %



Axborot va aloqa

855
112,8 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

2 973
114,3 %



Boshqa turlar

Hududlar kesimida

Andijon sh. 9 703

Asaka t. 2 374

Andijon t. 2 009

Shahrixon t. 1 996

Baliqchi t. 1 724

Izboskan t. 1 634

Oltinko'l t. 1 495

Xo'jaobod t. 1 375

Marhamat t. 1 337

Qo'rg'ontepa t. 1 329

Paxtaobod t. 1 301

Jalaquduq t. 1 184

Buloqboshi t. 878



Xonobod sh. 615

Ulug'nor t. 613

Bo'ston t. 543

2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra faoliyat yuritayotgan 37 699 ta tijorat korxonalari va tashkilotlaridan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 30 110 tani tashkil etdi. Shunga asoslanib, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar viloyatimizdagi eng keng tarqalgan tadbirkorlik faoliyatining shakli ekanligi haqida xulosa qilishimiz mumkin.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda, o'sish sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (112,8 foiz), axborot va aloqa (109,8 foiz), savdo (109,6 foiz), tashish va saqlash (109,3 foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (109,0 foiz), qurilish (104,1 foiz), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (103,6 foiz) sohalarida kuzatilgan bo'lib, hududlar kesimida esa Baliqchi (121,9 foiz), Buloqboshi (110,7 foiz), Asaka (110,5 foiz), Izboskan (109,7 foiz), Oltinko'l (109,4 foiz), Ulug'nor (108,3 foiz) va Paxtaobod (107,7 foiz) tumanlarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'sish kuzatilgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida**Yillar kesimida soni****Yillar kesimida o'sish sur'ati****Hududlar kesimida**

Andijon sh.	1 185	Xo'jaobod t.	164
Asaka t.	728	Jalaquduq t.	159
Baliqchi t.	355	Paxtaobod t.	140
Shahrixon t.	249	Izboskan t.	130
Qo'rg'ontepa t.	245	Buloqboshi t.	105
Marhamat t.	212	Bo'ston t.	89
Andijon t.	208	Xonobod sh.	72
Oltinko'l t.	177	Ulug'nor t.	65


2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslanganda 98,0 foizni tashkil etgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimi bo'yicha o'sish sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda – 106,7 foiz, axborot va aloqada – 101,1 foiz hamda savdoda – 100,4 foizni tashkil etgan. Hududlar kesimida esa Ulug'nor (114,0 foiz), Izboskan (103,2 foiz), Baliqchi (102,9 foiz) va Asaka (101,0 foiz) tumanlarida yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	763	Buloqboishi t.	83
Asaka t.	512	Baliqchi t.	56
Andijon t.	281	Xonobod sh.	53
Bo'ston t.	268	Jalaquduq t.	34
Shahrixon t.	228	Ulug'nor t.	33
Qo'rg'ontepa t.	180	Paxtaobod t.	32
Oltinko'l t.	134	Marhamat t.	27
Izboskan t.	96	Xo'jaobod t.	10

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




2023- yil 1- fevral holatiga yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 790 tani yoki ro'yxatdan o'tganlarning 86,7 foizini tashkil etdi. O'tgan yilga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar 94,7 foizni tashkil etdi.

Oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda qurilishda (113,6 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (110,0 foiz) hamda axborot va aloqa (109,1 foiz) sohalarida eng yuqori o'sish kuzatilgan bo'lib, hududlar kesimida esa Marhamat (103,8 %) va Shahrixon (102,2 %) tumanlarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'sish kuzatilgan.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra viloyatimizda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 430 tani tashkil etdi. O'tgan yilga nisbatan ularning soni 114,1 foizga, ya'ni 53 donaga ko'paygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng yuqori o'sish savdo (143,6 foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (134,8 foiz), axborot va aloqa (125,0 foiz) hamda tashish va saqlash (125,0 foiz) sohalariga to'g'ri kelib, hududlar kesimida esa Bo'ston (180,0 foiz), Ulug'nor (150,0 foiz), Jalaquduq (135,7 foiz), Izboskan (133,3 foiz), Qo'rg'ontepa (125,0 foiz) tumanlariga hamda Andijon shahriga (122,9 foiz) to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida


Andijon sh.	177
Andijon t.	33
Shahrixon t.	30
Asaka t.	28
Oltinko'l t.	24
Jalaquduq t.	19
Xonobod sh.	18
Buloqboshi t.	16
Xo'jaobod t.	15
Qo'rg'ontepa t.	15
Marhamat t.	14
Paxtaobod t.	9
Baliqchi t.	9
Bo'ston t.	9
Izboskan t.	8
Ulug'nor t.	6

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

 31 Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	 214 Sanoat	 33 Qurilish
 79 Savdo	 5 Tashish va saqlash	 11 Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
 5 Axborot va aloqa	 6 Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	 46 Boshqa turlar


2023

2022



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatining asosiy xususiyatlari - bu, ochiqlik, pragmatizm, bashoratga intilish, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 257 tasi qo'shma korxonalar, 173 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.



Qo'shma korxonalar

Xorijiy korxonalar

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyoti jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda. Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar hisoblanadi.


Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar hisoblanadi.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Andijon viloyati statistika
boshqarmasi Statistik
registrlarni yuritish bo'limi
Tel.: 74 228-29-74**

